



XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASINING TASHKIL ETILISHI: TARIXIY, SIYOSIY VA IQTISODIY JARAYONLAR

Abdivaitov Sunnatillo Akmal o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

IGFO'M(Tarix) 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar:*t.f.f.d.(PhD), dotsent O.M.Normatov*

Annotatsiya . Ushbu ilmiy maqola Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va uning Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shilish jarayonlarini tahlil qiladi. 1920-yilda Xorazm hududida amalga oshirilgan sovetlashtirish harakatlari, Rossiya imperiyasining qulashidan keyin Sovetlar tomonidan o'rnatilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayoniga taalluqlidir. Maqola Xorazmning tarixiy va madaniy ahamiyatini, feodal tizimni tugatish va kommunistik boshqaruv tizimi o'rnatish jarayonlarini yoritib beradi. Shuningdek, Xorazmning 1924-yilda Sovet Ittifoqining O'rta Osiyodagi boshqa respublikalari bilan birgalikda Xorazm SSRga aylanishi va uning siyosiy-iqtisodiy tizimining markazlashtirilishi ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, Sovet Ittifoqi, Xiva xonligi, 1917-yilgi inqilob, Oktyabr inqilobi, Markaziy Osiyo, Mustamlakachilikka qarshi kurash, Sovet hokimiyati, Kommunizm, Agrar islohotlar, Sanoat rivojlanishi, Kollektivlashtirish, Sovet tizimi, Turkiston SSR, O'zbekiston SSR, Sovet partiya, Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, Sovetlar davrida siyosiy o'zgarishlar, Sovet markazlashgan iqtisodiyoti, Madaniy islohotlar, Turkistonning mustaqilligi, Siyosiy integratsiya, Xorazm SSRning tugatilishi, Sovetlar va xalqaro siyosat, Ma'muriy-territorial islohotlar.



ОРГАНИЗАЦИЯ ХОРЕЗМСКОЙ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ РЕСПУБЛИКИ: ИСТОРИЧЕСКИЕ, ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Абдивайтов **Суннатилло** **Акмалович**
Чирчикский государственный педагогический университет
1-й курс магистратуры IGFO'M (История)
Научный руководитель: к.и.н., доцент О.М. Норматов

Аннотация. Настоящая научная статья анализирует процесс создания Хорезмской Народной Советской Республики и ее включение в состав Советского Союза. Действия по советизации Хорезмской области, осуществленные в 1920 году, связаны с процессами политических и экономических реформ, проведенных советской властью после падения Российской империи. В статье рассматриваются историческое и культурное значение Хорезма, процесс ликвидации феодальной системы и установления коммунистического управления. Также обсуждаются преобразования Хорезма в 1924 году в Хорезмскую Советскую Социалистическую Республику (ССР), а также централизация политической и экономической системы. Работа рассматривает организацию Хорезмской Народной Советской Республики и интеграцию ее в систему Советского Союза как важный этап в истории Центральной Азии.

Ключевые слова: Хорезмская Народная Советская Республика, Советский Союз, Хивинское ханство, революция 1917 года, Октябрьская революция, Центральная Азия, борьба против колониализма, советская власть, коммунизм, аграрные реформы, развитие промышленности, коллективизация, советская система, Туркестанская ССР, Узбекская ССР, Советская партия, социально-экономическое развитие Хорезма,



политические изменения в советский период, централизованная экономика Советского Союза, культурные реформы, независимость Туркестана, политическая интеграция, ликвидация Хорезмской ССР, советская внешняя политика, административно-территориальные реформы.

ESTABLISHMENT OF THE KHOREZM SOVIET SOCIALIST REPUBLIC: HISTORICAL, POLITICAL, AND ECONOMIC PROCESSES

Abdivaitov **Sunnatillo** **Akmal** **o'g'li**
Chirchik State Pedagogical University
1st-year Master's student in IGFO'M (History)
Scientific supervisor: PhD, Associate Professor O.M. Normatov

Abstract. This academic article analyzes the establishment of the Khorzem People's Soviet Republic and its integration into the Soviet Union. The Sovietization process in the Khorzem region, carried out in 1920, is related to the political and economic reforms implemented by the Soviets following the collapse of the Russian Empire. The article highlights the historical and cultural significance of Khorzem, the process of abolishing the feudal system, and the establishment of the communist governance structure. Additionally, it discusses the transformation of Khorzem into the Khorzem Soviet Socialist Republic (SSR) in 1924 and the centralization of its political and economic systems. This article considers the creation of the Khorzem



People's Soviet Republic and its integration into the Soviet system as a crucial stage in the history of Central Asia.

Keywords: Khorzem People's Soviet Republic, Soviet Union, Khiva Khanate, 1917 Revolution, October Revolution, Central Asia, anti-colonial struggle, Soviet power, communism, agrarian reforms, industrial development, collectivization, Soviet system, Turkestan SSR, Uzbekistan SSR, Soviet party, social and economic development of Khorzem, political changes during the Soviet era, centrally planned economy of the Soviets, cultural reforms, independence of Turkestan, political integration, dissolution of the Khorzem SSR, Soviet foreign policy, administrative-territorial reforms.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Ushbu maqolada tarixga nazar tashlab, 1920-1924-yillardagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, boshqaruv tizimi, inqirozi hamda sabablari kabi ma'lumotlarni keltirib o'tildi.



Xorazm, tarixan Xiva xonligining tarkibida bo'lib, u o'zining mustaqil siyosiy va iqtisodiy tizimiga ega edi. Ammo 1917-yilgi Fevral inqilobi va undan keyingi Oktyabr inqilobi, shuningdek, mustamlakachilikka qarshi kurashlarning ta'siri Xorazmda yangi siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Xiva xonligi hali mustaqil bo'lishiga qaramay, o'ziga xos muammolar va tahdidlar bilan yuzlashayotgan edi. 1917-yil kuzida Rossiyada yuz bergan oktabr o'zgarishi uning tasarrufidagi Xiva xonligidagi voqealarning rivojlanishi jarayoniga ham o'z sezilarli ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Shu bilan birgalikda xonlikning siyosiy ahvoli ham 1917-yil kuzidan keskinlashib bordi. Isfandiyorxon har qanday yo'l bilan o'z saltanatini saqlab qolishga intildi. Uning yuritgan kaltabin siyosati, ilg'or kuchlarni quvg'in va ta'qibga uchratishi, Yosh xivaliklar tashkilotini tor-mor etib, ularning rahbarlaridan o'ch olishi xonlikni tang ahvolga duchor etdi. Buning ustiga mamlakatdagi vaziyatni boshqara olmay qolgan xon o'z raqibi, ancha ta'sirli kuch egasi, turkmanlar sardori Junaidxonni 1918-yil yanvarida Xivaga chaqirib, uni o'z qo'shiniga bosh qo'mondon (sardori karim) etib tayinlaydi. Junaidxon esa tez orada Isfandiyorxonni qatl ettirib, uning o'rniga akasi, irodasiz Said Abdulloni xon qilib ko'taradi. Amalda esa Junaidxon yakka hukmron bo'lib oladi. Xonlikda kechayotgan zulmdan norozi bo'lgan aholidan tashkil topgan qo'zg'olon dastalari ham harakatga keladi. Ularning umumiy soni 3 ming kishidan oshardi. 1919-yil dekabrining so'nggi dekadasida boshlangan sovet qo'shinlari va ularga qo'shilgan mahalliy qo'zg'olonchi kuchlarning harbiy yurishi yanvar oyida Junaidxonga ketma-ket zarbalar berib, Xiva tomon siljib bordi. 1920-yil 2-fevralda Xiva

egallandi. Junaidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekindi. Qo'g'irchoq xon Said Abdullo taxtdan voz kechdi. Shu tariqa, qizil armiya kuchi va madadi bilan Xiva xonligi ag'darildi. Hokimiyat yangidan tuzilgan 5 kishidan iborat Muvaqqat Inqilobiy qo'mita qo'lga o'tdi. Uning tarkibiga Yosh xivaliklar va turkman urug'-qabilalaridan ikkitadan vakillar



kiritildi. Inqilobiy qo'mita raisi etib Yosh xivaliklar rahbarlaridan biri Jumaniyoz Sultonmurodov saylandi. 1920-yilning 27—30-aprel kunlari Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillari I Butun Xorazm qurultoyi Xiva xonligi tugatilganligi va yangidan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Qurultoy XXSR ning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Unda «Xorazm davlatining davlat tuzumi sovetlar negiziga asoslangan respublika ekanligi, Xorazmning butun xalqi o'z vakillari yordamida mamlakatni boshqarishi » ta'kidlanadi. Respublikaning oliy hokimiyati

yilda bir marta chaqiriladigan qurultoy bo'lib, u respublika hayotiga daxldor eng yirik vazifalarni hal etadi. Qurultoy mamlakatni boshqarish uchun 15 kishidan iborat hukumat — Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Qurultoyda Xorazm respublikasining birinchi hukumati raisligiga Yosh xivaliklar rahbari Polvonniyoz

Yusupov saylandi. Ko'p yillardan buyon davlat nomi «Xiva» shaklida ishlatilib kelingan bo'lsa, endi Xorazm nomi bu qurultoyda qayta tiklandi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilgani e'lon qilindi va uning Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bundan tashqari Xorazm XSR ning Nozirlar Sovetini sayladilar. 8 ta nozirlik tashkil qilinib, 5 nafar kommunist, bir yosh Xivalik va 2 nafar partiyasiz kiritildi. 1920 yil 28 aprelda esa XXSR e'lon qilindi.

Shunday qilib 1920- yil aprel oyida Xorazmda mustaqil Xalq Respublikasi e'lon qilinib, barcha xalqlar bilan birodarlikda yashashga katta umid bog'landi. Endigina siyosiy xaritada paydo bo'lgan mustaqil Xorazm respublikasiga qo'shni xalqlar yordam qo'lini cho'zdilar. Qo'shni Jumhuriyatlar 700 ming kishi hayot kechirayotgan Xorazm vohasini mahsulotlar va texnika uskunalari bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi va qaytib olmaslik sharti bilan 20 million so'm ajratdi. Turkiston komissiyasining qarori bilan 1920- yil aprel – may oylarida yana 150 million so'm yordam berildi. Joylarda yangi tashkilotlar tashkil qilishga kirishdilar.



Tezda yangi zamon maktablari, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi, internat-maktablar vujudga keltirildi. Turkkomissiya esa Xorazmga tezlik bilan birinchi navbatda 3 do'xtir, 8 feldsher, bir tish do'xtiri, bir akusherka, uch kasalxonani ta'minlashga etadigan dori-darmonlar 10 o'qituvchi, o'qish qurollari, 50 ming pud kerosin, 50 ming pud neft, idish-asboblarni yubordi. Bu davrda xalqaro munosabatlarda ham katta o'zgarishlar yuz bera boshladi. 1920 -yil iyun oyida Xorazm respublikasining ilg'or Davlat vakillari Toshkent Moskva shaharlariga kelib, qator uchrashuvlar o'tkazdilar va bitimlar tuzdilar. 1920- yil 1- sentyabrda Xorazm delegatsiyasi Boku shahrida chaqirilgan Sharq xalqlari syezdida ishtirok qilib, shu syezd qarorlarini qabul qilishda aktiv ishtirok etdilar. 13- sentyabr kuni XXSR va RSFSR o'rtasida davlat shartnomalari imzolandi, 13-noyabrda esa XXSR bilan Buxoro xalq sovet Respublikasi o'rtasida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. XXSR bilan RSFSR o'rtasida imzolangan shartnomaga binoan, Chor Rossiyasi Xiva xonligiga nisbatan ilgari qo'llanib kelgan barcha huquqlardan «voz kechdi». Chor Rossiyasi davrida Xorazmdan olib ketilgan barcha boyliklar mahalliy mehnatkashlarning ixtiyoriga berildi va Xorazm respublikasiga 500 mln. so'm yordam berildi. 1920 yil 20 sentabrda RSFSR bilan XXSR o'rtasida iqtisodiy shartnoma imzolaniib, o'zaro savdoga keng imkoniyatlar ochildi.

Xorazm respublikasi tuzilgan dastlabki oylardan boshlab undagi g'oyaviy – siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. “Yosh xivaliklar” hukumati va demokratik kayfiyatdagi kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlari hamda qadriyatlariga mos holda ish olib bordilar. Ammo, markazdan jo'natilgan qizil armiya va uning boshliqlari, kommunist bolsheviklar XXSR dagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Ular qonunga xilof ravishda respublikaning ichki ishlariga aralashdilar hamda mahalliy sharoit, xalq ommasining kayfiyati va xohish



irodasini umuman hisobga olmay inqilobiy chora-tadbirlarni, sovetlashtirish siyosatini amalga oshirdilar.

Shunga qaramasdan, respublikaning ko'plab mahalliy rahbar kadrlari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi g'oyaviy kurash olib bordilar. Misol uchun, 1923 yil bahorida XXSR savdo sanoat noziri K.Nurullayev Moskvada RSFSR bilan bo'layotgan muzokarlarda XXSR foydasiga qat'iylik ko'rsatgani uchun uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. 1923 yilning yoz va kuzida Sovet Rossiyaning ko'rsatmalari asosida Xorazm respublikasida tub islohotlar amalga oshirilib, oktyabr oyida XXSR Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi.

Butun Xorazm xalq vakillarining 5-qurultoyi (1924-yil 29-oktabr–2-noyabr) O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish munosabati bilan Xorazm SSR tugatilishini e'lon qildi. Xorazm SSRning o'zbeklar yashaydigan 23 ta tumani yangidan tashkil qilingan O'zbekiston SSR tarkibiga Xorazm viloyati qilib kiritildi. Xorazm SSRning qolgan hududlari Turkmaniston SSR va Qoraqalpoq muxtor viloyati (Qozog'iston ASSR tarkibida)ga qo'shildi. 1924-yil 23-noyabrda Xorazm SSR MIK va 30-noyabrda Xalq Nozirlar Sho'rosi o'z faoliyatini to'xtatdi.



XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu-ulomolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy bilimlarning, ayniqsa islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarimizning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Inqilobdan keyin paydo bo'lgan XXSR, keyinchalik XSSRning qisqa muddatli faoliyati murakkab va ziddiyatlarga to'la vaziyatda kechdi. Respublikaning ichki ishlariga aralashishlar, mahalliy rahbar kadrlarga ishonchsizlik, mahalliy sharoitlarni hisobga olmasdan ish ko'rish, markazning ko'rsatmasi bilan hali tayyor bo'lmagan o'lkani "sotsialistik respublika" deb e'lon qilish kabi o'ta jiddiy xatoliklar Xorazmning mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojiga katta zarar yetkazib, Xorazmni sovetlashtirish jarayonini yanada tezlashtirdi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi qisqa muddat ichida o'zining tarixi, siyosati va iqtisodiy tizimi bilan o'ziga xos bir davrni ifodalaydi. Ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlar, o'zgarishlar va siyosiy qarshiliklar Xorazmning keyingi tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda, Xorazmning Sovet davridagi tarixi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalaridagi



o'zgarishlar, shuningdek, mustaqil O'zbekiston Respublikasining shakllanishiga bo'lgan ta'siri o'rganilishi davom etmoqda.

FOYDALANILGN ADABIYOTLAR:

1. «O'zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990-yil.
2. O'zbekiston yangi tarixi, 2kitob (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida) T., 2000;
3. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, T., 2001. Qahramon Rajabov
4. "Xorazm Xalq Sovet Respublikasi" (o'zbekcha). Ensiklopedik lug'at. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi. 1988-yil
5. Mirzayev, M. (2003). "O'zbekistonning Sovet davridagi siyosiy tizimi"